



# PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

1(3)  
—  
2023



## MUNDARIJA

<b>PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA .....</b>	<b>6</b>
Lochin ZARIPOV. Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida kredit-modulli o'qitishning ahamiyati .....	6
Aziza QODIROVA. Ta'lrim jarayonida termiziy fikrlaridan foydalanishning ilmiy-nazariy masalalari ...	11
To'lqin RASULOV, Tabassum SALEEM, Umida UMAROVA. Didactic approach and innovative methods in distance learning .....	16
Dilnoza NOSIROVA. Talabalar ma'nnaviy tafakkurini harakatl o'yinlar orqali rivojlantirish .....	20
Xudaykulov Rustam Zakirovich. Bo'lajak muhandislarning "Avtotransport vositalarining diagnostikasi" fani asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari .....	24
Ulug'bek ESHQUVVATOV. Talabalarni muhandislik kasbiga yo'naltirishning dolzarbligi .....	29
У.И. МУРТАЗАЕВА. Особенности развития учебно-исследовательских компетенций студентов высших образовательных учреждений в условиях кредитной системы.....	32
Dilfuza O'RMONOVA. Takrorlash va mustahkamlash darslari jarayoniga pedagogik maqsadlar taksonomiyasini tatbiq etish .....	37
Nargiza DILOVA. Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash - pedagogik muammo sifatida .....	45
Ulug'bek MAMUROV. Aksiologik yondashuv asosida talaba – yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish .....	49
Laylo OCHILOVA, Lobar RAJABOVA. Steam usuli - ta'lrim jarayonida innovatsion texnologiya sifatida .....	54
Nohida DJUXONOVA. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning etnopsixologik xususiyatlari (o'zbek-qirg'iz oilalari misolida).....	58
Nargiza DILOVA. Shaxslararo munosobat va uning mohiyati.....	63
Aziza QODIROVA. Imom at-Termiziy shaxsining psixologik-pedagogik va fikrlarining qiyosiy-analitik jihatlari .....	68
Nodir RO'ZIYEV. Ekstremal vaziyatlarda o'spirinlar himoya mexanizmining psixologik tahlili.....	71
G.E.ARTIKOVA. 9-10-sinfda "Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi" fanini pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib o'qitishning ilmiy-metodik asoslari.....	74
Nozira MUSINOVA. Oila tarbiyasida milliy qadriyatlardan foydalanish imkoniyatlari.....	79
<b>MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM .....</b>	<b>82</b>
Rustambek QO'LDOSHEV. Scientific theoretical basis of construction of elementary school textbooks	82
Shabon FARMONOVA. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limalda o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish metodikasi .....	86
Asror KASIMOV. Xalqaro tajribalar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilaring kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish .....	89
Shakarjon QO'CHQOROVA. Darsliklar bilan ishslash o'quvchilar faolligini oshirish vositasi sifatida...	91
Feruza SHARIPOVA. Grammatik tushunchalarni shakllantirishda ta'limi o'yinlardan foydalanish.....	95
Sabohat SUBHONNOVA. 1-sinf chapaqay o'quvchilar bilan ishslash va yozuvga o'rgatish.....	98
O'g'iloy MUSTAFOYEVA. Sinfdan tashqari o'qishni tashkil etish usullari - samarali o'qitishning turi sifatida .....	101
Habiba JUMAYEVA. Psychological characteristics of development of creative abilities of primary class students.....	105
Dilnoza KARIMOVA. Birinchi sinf o'quvchilarining chirolyi yozish ko'nikmasini shakllantirish usullari .....	109
Dilfuza DJO'RAYEVA, Nasiba NASIMOVA. Maktabgacha ta'lrim yoshidagi bolalarning ta'limg-tarbiyasida pedagog xodimlarning o'rni .....	112
Sitora NIYAZOVA. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda milliy harakatl o'yinlardan foydalanish metodikasi .....	115
Mavjud NIGMATOVA. Maktabgacha ta'lrim tashkilotlarida kompyuterli ta'limi o'yinlar texnologiyasi .....	119
Flora NE'MATOVA. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligi .....	125

**SHARQ MUTAFAKKIRLARI MEROSSI VOSITASIDA BO'LAJAK  
O'QITUVCHILARNI SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TAYYORLASH -  
PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

*Maqolada sharq mutafakkirlari merosi, uning bugungi kundagi ilmiy ahamiyati, sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash muammosi, bunda milliy an'ana, madaniyat, qadriyatlarga asoslanish, o'qituvchilik kasbining nufuzini oshirish, pedagoglik kasbiga qiziqishni rivojlantirish, yangi davr talablari, o'qitish shakllari va modellariga muvofiq bo'lajak o'qituvchilarda shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishning dolzARB ahamiyati haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** Sharq mutafakkirlari, shaxslararo munosobat, mutafakkirlar merosi, milliy an'ana, madaniyat, qadriyat, o'qitish shakllari, hayotiy ko'nikmalar

В статье наследие восточных мыслителей, его научное значение сегодня, проблема подготовки будущих учителей к межличностным отношениям через наследие восточных мыслителей, на основе национальной традиции, культуры, ценностей, повышение престижа профессии учителя, развитие интереса в педагогической профессии обсуждается новая актуальная важность развития межличностных отношений у будущих учителей в соответствии с требованиями эпохи, педагогическими формами и моделями.

**Ключевые слова:** Восточные мыслители, межличностные отношения, наследие мыслителей, национальная традиция, культура, ценности, формы воспитания, жизненные навыки

*In the article, the heritage of Eastern thinkers, its scientific significance today, the problem of preparing future teachers for interpersonal relations through the heritage of Eastern thinkers, based on national tradition, culture, values, increasing the prestige of the teaching profession, developing interest in the pedagogic profession, new the current importance of developing interpersonal relationships among future teachers in accordance with the requirements of the era, teaching forms and models is discussed.*

**Keywords:** Eastern thinkers, interpersonal relationship, heritage of thinkers, national tradition, culture, value, forms of education, life skills

*Tarix shuni isbotlaydiki, jamiyat taraqqiyoti, ilm va fan rivoji mamlakatdagi siyosiy muhit, davlat rahbarining siyosiy irodasi, dunyoqarashi, yondashuvi va shaxsiy pozitsiyasiga bog'liq. Shu ma'noda, oxirgi yillar mobaynida O'zbekiston rahbaryati tomonidan ta'lim sifatiga e'tibor berishga oid amalgalashirilayotgan zalvorli ishlar dunyoda eng nufuzli davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yangi formatsiyadagi va katta obro' qozonayotgan islohotlar sifatida tan olinmoqda.*

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning davlat rahbari sifatida asosiy siyosiy platformasi va bosh maqsadi O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirish va bunga jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erishishdan iborat bo'lib, O'zbekistonning mavqeini yanada yuqori ko'tarish, milliy maqsadlarimizni ilgari surishning eng muhim omilidir.*

*Belgilangan maqsadlarga erishishda Sharq mutafakkirlarining boy ilmiy merosini chuqur o'rganish, undan samarali foydalanish, buyuk allomalarimizning ta'limga qo'shgan ulkan hissalarini targ'ib etish muhim ahamiyat kasb*

etadi.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida ta'lim-tarbiya masalalari muhim o'rinn egallaydi. Ayniqsa, ular ustoz va murabbiylarning axloqi, odobi, madaniyati, muloqoti, muomalasi masalasiga katta e'tibor berganlar. Zero yosh avlod tarbiyasi insoniyatning kelajak taqdirini belgilaydigan, ularni ijobjiy mezon bilan qurollantiradigan sifatlar bo'lganligi uchun ham mutafakkirlar bu muammoni hal qilishga harakat qilib kelganlar.

Muxammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muxammad Koshgariy, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Amir Temur, Jomiy, Abdulla Avloniy va shu kabi mutafakkirlarning qator asarlarida ustoz, murabbiy, shaxslararo munosabatlar, muloqot, muomala masalalariga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Ma'lumki, qadimgi manbalardan hisoblangan Zardushtiylik dinida ham muomala muloqot masalalari atroflicha tahlil qilingan. Zardushtiylik inson kamoloti va bilimning kuchiga qattiq e'tiqod qiladi va natijada bilimli kishi yutib chiqadi deb hisoblaydi. Avestoda inson o'z mehnati tufayli

46 barcha yomonliklardan yovuzliklardan qutilishi mumkin, degan ulug' g'oya yotadi. Unda ahloqiylikning asosi - saxovatilik deb kuzatilgan. Ahloq - yaxshi fikr, yaxshi so'z va amaliyot birligidan iborat deyilgan. Yaxshi fikr deganda yaqin kishisiga mehribon bo'lish, muhtojlarga ko'maklashish, yovuzlikka qarshi kurashish, kishilarning baxt-saodatini muhofaza qilish, ahillik va totuvlikda yashashga iitilish ruhidagi niyatlar va fikrlar tushunilgan. Bu fikrlarni kishi niyat qilibgina qolmay, ular to'g'risida tinmay so'zlashishi va ularni amalga oshirishi shart, deyiladi - Avestoda.

Qur'onning ma'lum oyatlari shirinsuxanlikka bag'ishlanadi. To'g'ri so'z va muomala madaniyatiga rioya qilish qonun-qoidadari Islomgacha ham bo'lgan. Ammo, Islomgina uning asl mohiyati, inson kamoloti, jamiyat taraqqiyotida naqadar katta ahamiyatga ega ekanini yoritib bera oldi. Chunki, kishilarda shirinso'zlik, madaniy muomala taraqqiy etgan mamlakatdagina amalga oshadi. Shirin so'zli insonning muomala madaniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi, obro'sini ortiradi, xhurmatga sazovor qiladi. Shunga ko'ra, Qur'onda har bir inson shirinso'z bo'lishi, agar muloqotdagilar o'zaro shirinso'z bo'lmasa, dushmanlik sodir bo'lishi ta'kidlanadi. Boshqa bir oyatda Alloh kishilarni so'zlashganda past ovoz bilan so'zlashga undaydi: Kishilarga chiroyli so'zlar so'zlangiz (Bakara surasi, 53-oyat).

Imom al-Buxoriyning inson sifatlari haqidagi qarashlarida jaholat kishiga o'lim keltiruvchi fojia deb qoralanadi. U odamlarni to'g'ri so'zli bo'lishga, va'daga vafo qilishga da'vat etib, munofiqlik kishining uchta belgisi bo'lishini ko'rsatadi, ular: yolg'on gapirish, va'daga vafo qilmaslik va omonatga xiyonat qilishdan iboratligini aytadi. U odamlarni, ayniqsa, mo'min-musulmon kishini haqorat qilishni gunoh, u bilan urishishni kofirlik deb biladi. U insonning kuch-qudrat, jismonan pahlavonlikda emas, balki jahl chiqqada o'zini tiya olishda deb hisoblaydi. Uning uqtirishicha, baland tovush bilan o'rinsiz kulish boshqalar diliga ozor beruvchi hislatdir. Xalqqa yoqimli va ehtiromli bo'lib, sazovor bo'lishni go'zal axloqlilik deb biladi alloma.

Sog'lom tanda sog' fikr bo'ladi, degan xalq maqoliga amal qilib, alloma yoshligidanoq sog'lijni saqlashga, vaqtini bekor o'tkazmaslikka da'vat etadi:

- Ikki narsa borkim, ko'pchilik ularning qadriga yetmaydi: biri sog' liq ikkinchisi bo'sh vaqt.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug' atit turk" asarida - Odobning boshi til iborasida esa hushxulqlikning talablaridan biri odobning boshi til ekanligi, shirinso'z kishi martabaga ega bo'ladi degan ma'no yotadi.

Yusuf Xos Hojibning - "Qutadg'u bilig"

asarida barcha yaxshi ishlarning manbai ezgulik, yomon ishlarning asosini essizlik nomlari bilan talqin yetadi. U inson hayotida qilgan ishi bilan yo yaxshi nom qoldiradi, yoki yomon nom oladi, deydi. Asarda olim barcha ezgulikning boshi til deb qaraydi. Asarning bir bobti til odobi, uning foyda va zararlariga bag'ishlanadi. Til insonning qadr-qimmatini oshiradi yoki shu til orqali inson yuz tuban xam ketishi mumkin, deydi. Kishi ikki narsa bilan hayotda mangu qoladi: biri hushxulqlilik bo'lsa, ikkinchisi yaxshi so'z, deydi olim. Zehn ko'rki so'zdir, bu til ko'rki so'z Kishi ko'rki yuzdir, bu yuz ko'rki ko'z kabi hikmatlarga aylangan fikrlaridan bilsak bo'ladi.

"Qutadg'u bilig" asarida insoniy munosabatlarning eng oliy mezoni sanalgan hurmat va ehtiromni tarkib toptirishning barcha ko'rinishlari o'z ifodasini topgan. Yusuf Xos Xojib jamiyat taqdirini hal etuvchi eng ulug' mansabdorlardan tortib, oila a'zolarigacha bir-biriga bo'lgan muomala - munosabat masalalarini ham hayotiy misolar vositasida yoritadi. Katta yoshlilarning kichiklarga, kichiklarning ulug'larga, amaldor va mansabdorlarning o'z xizmatchilariga, xizmatchilarining o'z xo'jalariga, turli ijtimoiy guruh a'zolarining bir-birlariga, oilada oila a'zolarining bir-birlariga, ustoz va shogird o'rtasidagi muomala madaniyatining eng oddiy ko'rinishlarigacha tasvirlab, kishining ko'z oldida yaqqol namoyon yetadi. Buni biz farzand tarbiyada uning tug'ulganidan boshlab hulq-odob qoidalari, bilim va hunarni o'rgatish, buning uchun pok va bilimli muallim-murabbiy tanlash, farzandning hatti-harakatini doimo nazoratda saqlash kabi masalalarning bayon etilishidan ham bilsak bo'ladi.

Olim ulug'lar va kichiklar o'rtasidagi hulq-odob qoidalari haqida gapirar ekan, shu asnoda kamtarlik, salomlashish odobi talablari, qoidalari ham tavsiya etadi.

Kaykovus o'ziniig — "Qobusnoma" asarida ahloqlilikning birinchi belgisi, suxandonlik deb biladi. U (suxanguylik) notiqlikda rost so'zlash kerakligini ta'kidlaydi. U so'zlarni to'rt xilga bo'lgani kabi odamlarni ham to'rt xilga bo'ladi. Birinchi xil kishilar ko'p narsani biladi va yana bilgisi kelaveradi. Bular olimlar bo'lib, ularga bo'ysunish kerak, deydi. Ikkinchisi, bilmagan narsasini bilishga harakat qiladi, ular qobil kishilar bo'lib, bunday kishilarga o'rgatish kerak. Uchinchisi, bilganini ham bilmaydi, uyquda yashagandek, ularni uyg'otish kerak. To'rtinchisi, bilmaydi va bilmaganini tan olmaydi. Bular johil kishilar bo'lib, ulardan qochish kerak, deydi.

So'zlearning esa birinchi xili bilinmaydi va aytilmaydi; ikkiichisi aytildigan va biladigan; uchinchisi, ham bilinadi, ham bilishga zarurati yo'k ammo aytса bo'ladi. To'rtinchisi, bilinadigan va aytildigan deydi. Eng yaxshisi, to'rtinchisi, ya'ni

bilinadigan va aytildigani deydi. So‘zlaganda andishalik bo‘lish, sovuq so‘zlik bo‘lmaslik, kam gapirish, kamtarlik, maqtanmaslik, birovning so‘zini diqqat bilan eshitish odoqlarini ta’kidlaydi.

Jomiy (taxallusi; asl ism-sharifi Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad) o‘zining “Nafahot uluns” («Azizlar nafasi») asarida nutq madaniyatiga shirinsuxanlikka ayniqsa, yosh avlodning katta e’tibor, berishi kerakligini ta’kidlaydi. Uningcha odam o‘ylab gapirishi boshqalarning fikrini ko‘prok eshitishi lozim, o‘ta sergaplik kishniniig aqslizlikdan dalolat beradi.

Jomiy yoshlarda saxiylik, shirinsuxanlik, kamtarlik, qanoat, do‘stlik, aqlilik, rostgo‘ylik, mehnatsevarlik kabi xislatlarni singdirmoqchi bo‘ladi. bu fazilatlarni ko‘klarga ko‘tarib maqtaydi.

Yuqoridaqilardan kelib chiqib aytish mumkinki, shaxslararo munosabatlар samardorligini shakllantirish oila, ta’lim muassasalarini, davlat idoralari, shu jumladan, jamoatchilik uyushmalari zimmasiga katta mas’uliyatlarni yuklaydi. Jumladan, “Jismonan sog‘lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” muhim yonalishlardan hisoblanadi.

Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyalarini ishlab chiqish jarayonini milliy an’ana, madaniyat, qadriyatlarga asoslanish, o‘qituvchilik kasbining nufuzini oshirish, pedagoglik kasbiga qiziqishni rivojlantirish, yangi davr talablari, o‘qitish shakllari va modellariga muvofiq bo‘lajak o‘qituvchilarda shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish hukumatimiz va ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan etib belgilangan. Ayniqsa, sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyalarini tarkib bag‘rikenglik muhitini tobora kengroq targ‘ib va tatbiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ozbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 27-fevralda e’lon qilingan Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida Oliy pedagogik ta’limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot kommunikatsiya va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minalash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzlusiz rivojlantirib borish uchun qo‘srimcha sharoitlar yaratish” pedagogika ta’lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi. Bu esa sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo

munosabatlarga tayyorlash strategiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, pedagogik jamoada muvaffaqiyatli kasbiy moslashuv sharti sifatida shaxslararo munosabat rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmonlari, 2018 yil 4-iyundagi Jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi”gi PK-3837-son Qarori, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, 2018-yil 14 avgustdagagi Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’limtarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son, 2020-yil 27 fevraldagagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko‘rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta’minalash nazarda tutilgan.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyalarini ishlab chiqish o‘z yechimini kutayotgan dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda shaxslararo munosabat madaniyatining falsafiy, psixologik va pedagogik asoslari, milliy tarbiya asosida shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirish masalalari bo‘yicha O.Musurmonova, M.Quronov, R.Safarova, A.S.Ochilidiyev, M.Davletshin, E.G‘oziyev, N.Safayev, D.Ro‘ziyeva, N.Egamberdiyeva, Sh.Shodmonova, M.Bekmurodov, Z.Saliyeva, Z.Asimova, A.Xoliqov kabi olimlar tomonidan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan V.Abramenkova, A.Adler, A.Asmolov, A.Belik, A.Bodalev, L.Bojovich, L.Vigotskiy, Y.Jukov, A.Leontev, M.Lisina kabilarning tadqiqotlarida shaxslararo muloqot psixologiyasi, shaxslararo muloqotning tolerantlik bilan aloqadorligi,

48 guruhlararo kommunikatsiyaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari yoritib berilgan.

Xorijlik olimlardan G.Auernhaimer, A.Sana, B.Soraya, D.Yeates, J.C.Deschamps, T.Devos, A.I.Dontsov, E. B.Perelygina, D.John, H.Yasushi, G.Hofstede kabilar tomonidan shaxs madaniyati, muloqot va mentallik, identiklik, kommunikativ tolerantlik, shaxslararo konfidentlik masalalari tadqiq etilgan.

Shunga qaramay, refleksiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish, madaniyatlararo muloqot vositasida bo'lajak o'qituvchilarda shaxslararo munosabat tizimini shakllantirish, milliy-madaniy xususiyatlarni hisobga olish asosida sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyalari ishlab chiqilmagan.

Ushbu holat va zaruriyatdan kelib chiqqan holda, biz mazkur muammoni muayyan darajada yechishga harakat qilib, Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyalarini ishlab chiqishni maqsad qilib oldik. Bunda asosiy maqsadni Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyalari doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chikishga qaratdik.

#### Mazkur tadqiqot ishini olib borish natijasida:

- sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyalarini dolzarb pedagogik muammo ekanligini aniqlash;

- sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyalarining huquqiy asoslariga tayanib optimallashtirish yo'llarini ko'rsatish;

- sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyalarining ilmiy-pedagogik asoslarini belgilash;

- sharq mutafakkirlari merosi vositasida

1. Raxmatov M. , Zaripov B. Yangi O'zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida. -T: "Zamin nashr", Toshkent 2021, 113-b

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017-yil 6-soni. 70-modda.

3. Манба: <http://uza.uz/oz/documents/pedagogik-talim-so-asini-yanada-rivozhlanirish-chora-tadbir-28-02-2020>

4. Дибова Н. /Opportunities for formation of inter-personal relationship skills in students in primary education/"Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 October 2021 / Volume 2 Issue 10

5. Дибова Н. Sharq mutafakkirlari merosi vositasida ta'lim jarayonidagi shaxslararo munosabatlarni o'rnatishning pedagogik xususiyatlari,/ Н.Г. Дибова, "Таълим ва инновацион тадқиқотлар" - Халқаро журнал 2022.№2

bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyalarining didaktik asoslarini ko'rsatish;

- sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyalarining shakl, metod va vositalarini belgilash;

- hozirgi sharoitda sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyalarini holatini o'rganish;

- sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyalarini takomillashtirish borasida ilmiy-metodologik tavsiyalar ishlab chiqish va ularning samaradorlik darajasi aniqlash kabilarga erishishni nazarda tutdik.

Bugungi kun zamnaviy ta'limida muhim bo'lgan shaxslararo munosabatlarga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirish o'quvchilarni boshlang'ich sinfdanoq mustaqil fikrlashga o'rgatish masalasini hal qilishda muhim omillardan biri hisoblanishini e'tiborga oladigan bo'lsak, bo'lajak boshlang'ich sind o'qituvchilarida shaxslararo munosabatlarga kirisha olish ko'nikmalarini shakllantirish, bu borada Sharq mutafakkirlari merosidan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'quvchi yoshlarga sifatli ta'lim va tarbiya berish, ularni hayot uchun muhim bo'lgan ko'nikmalar bilan qurollantirish maqsadida samarali ta'lim vositalari va metodikalarini yaratish va ulardan amaliyotda foydalanish, horijiy tajribalar asosida yangilarini egallash, XXI asr talabiga javob beradigan ta'lim muhitini ilgari surish va rivojlantirish kabi muhim masallar bugungi kun uchun dolzarbdir.

Zero, Yangi O'zbekistonda ta'lim sohasini rivojlantirish, Uchinchi Renessansni yaratish, bu jarayonda sohani tubdan isloh qilish bo'yicha yangi tizim shakllandi. Ta'lim sohasida jahon ta'lim standartlariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash uchun oliy ta'lim muassasalarining ta'lim sifatini oshirish va innovatsion rivojlantirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda, albatta, Sharq mutafakkirlarining boy merosidan foydalanish asosiy tamoyillardan biri deb belgilangan.

#### Adabiyotlar

1. Raxmatov M. , Zaripov B. Yangi O'zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida. -T: "Zamin nashr", Toshkent 2021, 113-b
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017-yil 6-soni. 70-modda.
3. Манба: <http://uza.uz/oz/documents/pedagogik-talim-so-asini-yanada-rivozhlanirish-chora-tadbir-28-02-2020>
4. Дибова Н. /Opportunities for formation of inter-personal relationship skills in students in primary education/"Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 October 2021 / Volume 2 Issue 10
5. Дибова Н. Sharq mutafakkirlari merosi vositasida ta'lim jarayonidagi shaxslararo munosabatlarni o'rnatishning pedagogik xususiyatlari,/ Н.Г. Дибова, "Таълим ва инновацион тадқиқотлар" - Халқаро журнал 2022.№2